

## Besh tashabbus ijrosi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019 - yil 19 - mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish konikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazilgan edi. Unda davlatibiz rahbari ijtimoiy ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishlarini yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edilar.

Ushbu targ'ib etilayotgan tashabbusdan biri bo'lgan 5 - tashabbus "Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini" nazarda tutgan holda YRB fakulteti 3-kurs dekan muovini A.Y.Jurayev boshchiligidagi 3-kurs faol talaba qizlarini o'z mutaxassisligini hozirdan zamin yaratish maqsadida "Geoinformkadastr" DUKda muhandis sifatida ish yurutishni boshladi. Kelajakda qizlarimizga yuksak muvaffaqiyatlar tilagan holda "Geoinforumkadastr" DUK direktori Mayinov Shuxrat Quchqorovichga o'z minnatdorchilimizni bildiramiz.

**TIQXMMI matbuot xizmati**